



## **XORAZM VILOYATI ICHKI ISHLAR BOSHQARMASI BOSHLIG'INING FARMOYISHI**

### **Xorazm viloyati IIB huzuridagi "Jamoatchilik kengashi" faoliyati yangi tarkibini tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolik jamiyatni institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 26-avgust kunidagi PF-124-sun Farmoni, Ichki ishlar vazirining "Ichki ishlar vazirligi va uning hududiy bo'linmalari huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 11-mart kunidagi 122-sun buyrug'i hamda IIVning 2024-yil 24-oktabr kunidagi №349-sunli Farmoyishiga asosan Ichki ishlar boshqarmasi huzurida jamoatchilik asosida doimiy faoliyat yurituvchi maslahat-kengash organi hisoblangan Jamoatchilik kengashining yangi tarkibini tasdiqlash maqsadida, **buyuraman:**

1. Xorazm viloyati Ichki ishlar boshqarmasi va shahar-tuman IIB (IIO FMB) lari huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyati vazirlikning 2023-yil 11-mart kunidagi 122-sun buyrug'i talablari asosida yo'lga qo'yilsin.
2. Xorazm viloyati Ichki ishlar boshqarmasi huzuridagi "Jamoatchilik kengashi"ning yangi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Boshqarma Axborot xizmati boshlig'i (Z.S.Ismayilov) tegishliligi bo'yicha kengash tarkibini tuzgan holda ular faoliyatini ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng jamoatchilikka doimiy ravishda yetkazib borilishini ta'minlasin.
4. Boshqarma Moliya va moddiy-teknika ta'minoti boshqarmasi (Sh.B.Babajanov) IIB huzuridagi Jamoatchilik kengashining faol a'zolarini budgetdan tashqari mablag'lar hisobidan moddiy rag'batlantirib borish choralarini ko'rsin.
5. Boshqarma Axborot xizmati boshlig'i (Z.S.Ismayilov) hamda Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'limi (Sh.M.Ibragimov) Jamoatchilik kengashi oldiga qo'yilgan asosiy vazifa va funksiyalardan kelib chiqqan holda belgilangan reja va tadbirlarning tashkillashtirilishini ta'minlasin.
6. Mazkur farmoyish ijrosini ta'minlash boshqarma Axborot xizmati boshlig'i podpolkovnik Z.S.Ismayilov zimmasiga yuklansin.

**Boshqarma boshlig'i  
polkovnik**

**R.I.Sultanxodjayev**

Urganch shahri,  
2024-yil "7" noyabr,  
107 - son.